



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-noyabr

244-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-310-sonli va shu haqidagi Farg‘ona viloyati hokimining 2025 yil 30-oktabr kungi 525-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-310-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 21¹-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-310-sonli va shu haqidagi Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 30-oktabr kungi 525-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

-O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarning namunaviy “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq;

-tuman (shahar)larda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish chora-tadbirlarining namunaviy “yo‘l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq;

-mahallalarni favqulodda vaziyatlardan holi hududga aylantirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarning namunaviy “yo‘l xaritasi” 4-ilovaga muvofiq;

-mahallalarda favqulodda vaziyatlarning yuz berish xavfini ilmiy-texnik o'rganish bo'yicha biriktirilgan ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlari ro'yxati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari 6-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori ijrosini monitoring qilib borish rejasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmalari, viloyatlar va tumanlar (shaharlar) boshqarmalari (bo'limlari) rahbarlari lavozimiga ko'ra tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) hokimlari – fuqaro muhofazasi boshliqlarining o'rinbosarlari hisoblanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev)ga mahallalarda favqulodda vaziyatlar profilaktikasini manzilli tashkil etish va uni samarali amalga oshirishda “Mahallamizni favqulodda vaziyatlardan muhofazalangan hududga aylantiramiz” shiori ostida “profilaktika muhofaza” tamoyili asosida quyidagi tashkiliy mexanizmlarni amalga oshirish topshirilsin:

-mahallalarda favqulodda vaziyatlarning yuz berish xavfini ilmiy-texnik yondashuv asosida joyiga chiqqan holda o'rganishlar tashkil etib, xavf indikatorlariga ko'ra har bir mahallaning “qizil”, “sariq” va “yashil” darajalarini belgilash;

-favqulodda vaziyatlarning yuz berish xavfi yuqori bo'lgan (“qizil” va “sariq”) mahallalarni muntazam ravishda “xonadonbay” o'rganib borish va muammolarni bartaraf etish orqali xavf indikatorlarini kamaytirishga qaratilgan viloyat, tuman va mahallalar kesimida profilaktika qilish chora-tadbirlari rejalarini ishlab chiqish; bo'lim rahbar xodimlarini, davlat inspektorlarini, birinchi navbatda, “qizil” va “sariq” darajadagi mahallalarga biriktirish orqali mahalla tizimi vakillari va faollari bilan manzilli kompleks profilaktika tadbirlarini tashkil etish;

-mahallalarning xavf darajalaridan kelib chiqib, hududiy birlik doirasida davlat inspektorlarini profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun eksterritorial tamoyil asosida taqsimlab borish.

4. O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (D.Xomidov), Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev) bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig'ini binosi va huquq-tartibot maskanlarida favqulodda vaziyatlar bo'yicha davlat inspektorlarining “mahalla muhofazasi” xizmat xonasini tashkil etish, mahalla tizimi vakillarining aniq

vazifalarini belgilash hamda ularning ijrosini muvofiqlashtirib borish choralarini ko'rsinlar.

5. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev) mahalla yettiligi bilan birgalikda:

-zamonaviy texnik vositalar va texnologiyalar yordamida favqulodda vaziyatlar va yong'inlar yuz berish xavfi yuqori bo'lgan hududlarda vaqtinchalik maxsus postlarni tashkil qilish hamda favqulodda vaziyatlarni tezkorlik bilan bartaraf etish tizimini yaratish choralarini ko'rsin;

-mahallalardagi uy-joy fondi va boshqa nazorat obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va boshqa texnik-profilaktik chora-tadbirlarni muvofiqlashtirsin, natijadorligi bo'yicha ta'sirchan davlat nazoratini o'rnatish hamda faolligi uchun mas'ullar va jamoatchilik vakillarini rag'batlantirib borish tartibini yo'lga qo'ysin;

-aholining barcha qatlamlari, shu jumladan, ijtimoiy, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari jamoalari bilan fuqarolik muhofazasi borasida o'quv-amaliy va kompleks targ'ibot-profilaktik tadbirlarini tizimli ravishda o'tkazib borsin.

6. Farg'ona viloyati hokimining mazkur qaroriga muvofiq:

Tuman Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (D.Otamirzayev)ga Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi, Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (Lavozimiga ko'ra), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (X.Mirzayev), tumanlar hokimliklari bilan birgalikda o'rmon fondi obyektlarida mavsum oldi va mavsumda, paxta-to'qimachilik klasterlari, qurilish obyektlari hamda yirik savdo-ko'ngilochar markazlarida amaldagi qonunchilik hujjatlari doirasida aholi xavfsizligini ta'minlash va ularning mol-mulkini asrashga qaratilgan manzilli profilaktik tadbirlarni amalga oshirsinlar.

7. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev) O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (D.Xomidov), mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan birgalikda "Mahalla muhofazasi" loyihasi doirasida quyidagilarni amalga oshirish choralarini ko'rsinlar:

-mahallalarda favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan texnik profilaktik tadbirlarni amalga oshirish hamda aholi xonadonlarida yong'in, is gazi va chaqnash kabi baxtsiz hodisalar kelib chiqishining oldini olish;

-elektr energiyasi, tabiiy gaz va muqobil yoqilg'i turlaridan hamda isitish pechlaridan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etilishini tashkil etish;

-elektr energiyasining behuda sarflanishi hamda gaz va elektr tarmoqlariga xavfsizlik talablariga zid ravishda ulanishlarning oldini olish, shartnoma asosida uy-joy fondida shamollatish kanallari va dudburonlar sozligini ta'minlash, olovdan himoya qilish va pech-mo'rikon ishlarini bajarish, elektr va gaz jihozlariga, shuningdek, yong'inga qarshi himoya tizimlari va vositalariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ularni ta'mirlash;

-olovdan himoya qilish ishlarini bajarish, yong'in o'chirishning birlamchi vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish;

-aholining barcha qatlamlariga hayot faoliyati xavfsizligi sohasida targ'ibot tashviqot ishlarini o'tkazish, sohaga oid maxsus adabiyot hamda targ'ibot materiallarini tayyorlash va tarqatish.

8. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (SH.Yuldashev), o'rta maxsus bilim yurtlari rahbarlari bilan birgalikda bolalar va yoshlarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish, hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga uzluksiz tayyorlash uchun mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha ta'lim tashkilotlari tarbiya o'quv jarayoniga quyidagilarni amalga oshirsinlar:

-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda shaxsiy xavfsizlik kompetensiyalarini bolalikdan shakllantirishda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi doirasida "Xavfsiz harakat ko'nikmalari"ni muammoli-vaziyatli o'yinlar va interfaol mashg'ulotlar orqali tarbiyalashni yo'lga qo'ysin;

-2026/2027-o'quv yilidan boshlab umumta'lim, o'rta maxsus, kasbiy ta'lim tashkilotlarida "Hayot faoliyati xavfsizligi" mavzularida o'quv-amaliy (taktik) mashqlarni o'tkazib borsin.

9. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev), Adliya bo'limi (S.Mahkamov), Ijtimoiy himoya milliy agentligi Farg'ona tumani bo'limi (U.Yuldashev), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (D.Xomidov), mahalla fuqarolar yig'inlari raislari har yili ikki marotaba (bahor va qish mavsumlaridan oldin) ish bilan band bo'lmagan aholi qatlami, inklyuzivlik tamoyili asosida nogironligi bo'lgan shaxslar bilan mahalla fuqarolari yig'ini vakillari hamkorligida favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo'yicha birlamchi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-mashq tadbirlarini o'tkazish choralarini ko'rsin.

10. Tuman Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (D.Otamirzayev)ga manfaatdor idora va tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda 2026-yildan boshlab har yili mulkchilik shaklidan qat'i nazar, bitta binoda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan hamda jamoalarida ishchi va xodimlari soni jami 50 nafar va

undan yuqori bo'lgan tashkilot va muassasalarda favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo'yicha shartnoma asosida o'quv-amaliy o'qitishlar o'tkazib borish tizimini yo'lga qo'yish va o'qitishning yagona reyestriga kiritish.

11. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev), Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona tumani bo'limi (M.Alijonov), tuman hokimligi bilan birgalikda:

-har bir mahallada yoshlar orasida volontyor va aholi o'rtasida "ko'ngilli qutqaruvchi"lardan iborat "Favqulodda vaziyatlar volontyori" jamoatchilik guruhlarini shakllantirish, ularning ko'magida mahallani favqulodda vaziyatlardan holi hududga aylantirishga qaratilgan "Biz birgamiz!" harakatini amalga oshirish choralarini ko'rsin;

volontyorlik guruhlarining faoliyatida "mahalla-volontyor-davlat inspektori" uzviy hamkorlik zanjirini yo'lga qo'ysin.

12. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Ergashev), Adliya bo'limi (S.Mahkamov) bilan birgalikda muntazam ravishda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi o'zgarishlar, mahallalarda amalga oshirilayotgan profilaktika chora-tadbirlari hamda xavfsizlik madaniyatini oshirish borasida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

13. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev):

-mahallalarda favqulodda vaziyatlardan profilaktika qilish mexanizmini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy asoslantirilgan takliflarni muvofiqlashtirib, ishlab chiqiladigan viloyat, tuman, mahalla darajasidagi "yo'l xaritalari"ga kiritish choralarini ko'rsin.

-tumandagi tegishli idora va tashkilotlarga viloyat, tuman, mahalla darajasidagi "yo'l xaritalari"da belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlasin.

14. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev) tuman hokimligi bilan birgalikda "yo'l xaritalari"da belgilangan chora-tadbirlar, shuningdek, sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning talab darajasida bajarilishi yuzasidan har oyda bevosita joylarga chiqqan holda o'rganishlar o'tkazib, monitoringini yuritsin.

15. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T